



UO‘K:

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16970635>

CHIZMACHILIK VA TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA LOYIHA ISHI.

D.A. Rahmanova

*O‘zbekiston Finlandiya pedagogika
instituti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasida magistranti*

Anotatsiya.

Ushbu maqolada maktablarda ta’lim tarbiya, o‘qituvchi maqomi, ta’lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarning joriy etilayotganligi, tasviriy san’at va chizmachilik darslarini samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish va loyiha ishi haqidagi fikr, mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *inovatsiya, integratsiya, loyiha, “Bir daqiqa”, “Dekoder”, “Ko‘p qirrali dunyo”, “Video topishmoq”, “Maxfiy konvert”, “Davrlar almashsinlar”, qiziqarli harakatli o‘yinlar “Eneyjayzer”*

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, davlatimizning o‘z oldiga belgilab olgan taraqqiyot yo‘lini bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lida olib borilayotgan barcha islohotlar, aholi turmush tarzini yaxshilash, xalqimizning erkin va farovon yashashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, ma’naviy barkamol, sog‘lom va bilimli avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, davlat strategiysining asosiy g‘oyasi **“inson-jamiyat-davlat”** tamoyiliga asoslanadi.

O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyingi qisqa davr mobaynida turli sohalarda, jumladan ta’lim tizimida ham ko‘plab yutuqlarga erishdi.

Bugungi kunda, yangi ta’lim tizimini shakllantirish, uni xalqaro ta’lim standartlariga mos integratsiyalash, jahon bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, uni amaliyotga joriy etish ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Jumladan, milliy o‘quv dasturi asosida yaratilayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy maktab darsliklarini XXI asr ko‘nikmalariga mos ravishda tayyorlab amaliyotga joriy etilishi, o‘qituvchilarning kasbiy, pedagogik va psixologik malakasini oshirish, o‘z ustida ishlash, tajriba almashishi uchun barchaga birdek imkoniyatlarning yaratilganligini ta’kidlash mumkin.

Ba’zan, berilayotgan shuncha imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilyaptimi degan savol kelib qoladi. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan ma’suliyati kundankunga kamayib ketayotganligi, tarbiya masalasidagi yengil qarashlar bevosita ta’lim

jarayoniga katta ta'sir etayotganini sezishimiz, ayrim hollarda o'qituvchi obro'yi pasayayotgan, mehnati esa qadrsizlanayotgandek ko'rinadi. Nega bunday bo'ldi, qanday yechim topish kerak? Bu savolga javob qidirar ekanmiz o'qituvchilar oldidagi burch, ma'suliyatning yanada ortishini his qilamiz.

Ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish borasida tizimli ishlar tashkil etilgan. Biroq, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda o'quvchilarni darsga jalb etish, qiziqtirish masalasi ancha murakkab bo'lib bormoqda. Shu o'rinda bor e'tiborni ta'limga qaratib tarbiyani unutmasligimiz lozim. Trabiya bor joyda ta'lim sifati va samarasini ko'rishimiz mumkin.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya haqida shunday yozganlar "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq, bo'lsa ham ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boyitilgan jon ila tan kabidur".¹

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxirtda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi". Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shakshubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo'lsagina, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart. Ayni damda tarbiya sohasida o'qituvchi va muallimlar o'quvchi yoshlarga shaxsan namuna bo'lishlari ham muhimdir!²

Ayni paytda zamonaviy ta'lim tizimi har tomonlama o'qitishning yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishni talab etmoqda, bu o'z navbatida har bir fan o'qituvchisidan o'z ustida ishlash, fannni amaliy, hayot bilan bog'lab o'quvchini mustaqil izlanishga, duch kelishi mumkin bo'lgan mumammolarga yechim topa oladigan, kreativ fikrlaydigan qilib tarbiyalashni talab etmoqda. An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi ma'lumot manbai o'quvchi tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi edi, endi o'quvchi kashf etuvchi o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Ta'lim esa aniq ma'lumotlarni yod olish emas, balki loyiha ishi, amaliyot bilan bog'liq holda olib borish kerakligini tasdiqlamoqda.

Bunday o'qitish usulini dunyoning rivojlangan mamlakatlar tajribasi jumladan Finlandiya ta'lim tizimida ko'rishimiz mumkin. Fin ta'lim tizimining yetti tamoyilidan biri "amaliylik" tamoyilidir. Fin xalqi "**Biz, hayotga yoki imtihonlarga tayyorlanamiz. Biz birinchisini tanlaymiz**" printsiptiga tayanadi. Aynan shuning uchun Finlyandiya maktablarida yakuniy maktab imtihonlari mavjud emas va o'rta va oliy o'quv yurtlariga kirishda o'rta maktabda olingan o'rtacha ball hisobga olinadi. Bundan tashqari, kattalar hayotida muhim bo'lgan amaliy ko'nikmalarga katta e'tibor beriladi: portfelni tuzish, veb-saytlarni yaratish asoslarini o'rganish, soliqlarni hisoblash va hokazo. Sinfda tanlangan kasbning mehnat majburiyatlarini o'rganish shaklida ham, ikki hafta davomida haqiqiy ish shaklida, ham ish amaliyotidan o'tish imkoniyati mavjud.⁴

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at va chizmachilik darslari o'quvchilarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda xizmat qiladi. Bu fanlar inson ichki ruhiy kechinmalari, o'y-xayollari, tasavvuri, kayfiyati va tabiat go'zalliklarini turli xil ranglar va shakllar orqali kreativ fikrlashini ifodalaydi. Darsning maqsadi amalga oshishi va yuqori natijaga erishilishi uchun faoliyatni hamkorlikda, qo'yilgan maqsad, tanlangan mazmun, yo'nalish, metod ya'ni texnologiyaga bog'liq. Bugungi pedagog, darsida o'quvchilarning axloqiy, ta'limiy va badiiy madaniyatini oshirish maqsadida turli usullardan, interfaol metod, inovatsion, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash uni ta'lim jarayonida qo'llay olishi kerak. Darsning qiziqarli bo'lishi o'qituvchining mohirlikdan-ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta'lim sohasi rivojiga hissasini qo'shmog'i mumkin. Metod, usul va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni farqlay olishlari lozim, mashg'ulot jarayonida ulardan o'rinli foydalanish dars maqsadining bajarilishini ta'minlaydi. Buning uchun darslarni turli interfaol metodlar "Bir daqiqa", "Dekoder", "Ko'p qirrali dunyo", "Video topishmoq", "Maxfiy konvert", "Davrlar almshtsinlar", va qiziqarli harakatli o'yinlar "Eneyjayzer"lardan foydalanib, tashkil etish mumkin.

Darslarda loyiha ishini amaliy bajarish o'quvchilarni tanqidiy, kreativ fikrlashga izlanishga, mavjud muammoni mustaqil o'rganishga undaydi va natijada o'quvchi ushbu fanni nima uchun o'rganishi kerakligini tushunib yetadi.

Loyiha — yakka tartibda yoki hamkorlikda amalga oshiriladigan, ma'lum bir maqsadga erishish uchun rejalashtirilgan tadqiqot yoki tashabbus.

Loyiha ishi bajarishda qo'yilgan maqsaddan natijaga erishishda qanday usulni tanlashi shu ishni bajarayotganlarga bog'liq, chunki har ikki tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, uni qay tartibda bajarish ularning bilim saviyasi va sharoitiga bog'liq.

To'g'ri tanlangan usul, metodlardan darsni boshlash, yangi mavzu bayoni, mustahkamlash, amaliy mashg'ulot qismlarda foylanish mumkin.

"Bir daqiqa" metodi

“Bir daqiqa” metodi: Bu metodga bir daqiqa sarflanadi, ya’ni darsning xohlagan daqiqasida foydalanish mumkin. Bu metod o‘quvchini tezkorlikka, hozirjavoblikka, tanqidiy, kreativ fikrlashga undaydi atrofda bor narsa buyumlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Bajarilishi: o‘qituvchi topshirig‘iga binonan 1 daqiqa ichida mavzuga mos so‘zlar, atamalarni topishlari talab etiladi. Masalan: chizmachilik darslarida Pol Sezanning “Sen tabiatda silindr, shar va konusni ko‘rishing kerak” degan fikrini izohlang.

Topshiriq: bizni o‘rab turgan atrof muhitda prizmani nimalarda uchratishimiz mumkinligini yozing.

“Ko‘p qirrali dunyo” o‘yini

“Ko‘p qirrali dunyo” o‘yini: bu o‘yin o‘quvchini guruh bilan ishlash, izlanishga, tezkorlikka, hozirjavoblikka, tanqidiy, kreativ fikrlashga undaydi atrofda bor narsa buyumlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Bajarilishi: Har bir guruh qur‘a tashlash yo‘li orqali bir ko‘pyoqlikni tanlab oladi va jamoa tegishli nom bilan ataladi. Har bir jamoa ko‘pburchak modeli haqida davomiyligi 5 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan asosiy ma‘lumotlarni beradi.

Topshiriq: nutq davomida jamoa sardori yoki bir guruh talabalar tinglovchilarga o‘rganilayotgan ko‘pburchakning xususiyatlari haqida aytib berishlari, uning geometrik xususiyatlarini sanab o‘tishlari, tarixiy ma‘lumotlar yoki qiziqarli ma‘lumotlardan foydalanishlari kerak. Bu moddiy obyektlar, belgilar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Jamoa qandaydir modelni o‘ylab topishi va uni ko‘pburchak yordamida ko‘rsatishi mumkin.

“Davrlar almashsinlar” metodi

“Davrlar almashsinlar” metodi bu metod o‘tgan zamonda qanday bo‘lgan, bugungi kunda va kelajakda qanday natija kutilyapti degan savollarga javob topishga undaydi, o‘quvchi fikrlaydi, izlanadi, kreativ yondashishga harakat qiladi.

1. Nima uchun Misr ehromlari, Eiffel minorasi piramida shaklida qurilgan?
2. Tasvvur qiling siz o‘tirgan stul oddiy stul emas, agar shu stul sizni 4500 yil oldingi davrda olib borib qo‘ysa, siz shu binoni qanday shaklda qurgan bo‘lar edingiz?
3. Nima uchun bu shaklni tanladingiz?

“Decoder” metodi

15.11.23.21 6.10.21.17.15.14.1.21.11
□□□□ □□□□□□□□

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii
Jj Kk Ll Mm Nn Oo Pp Qq
Rr Ss Tt Uu Vv Xx Yy Zz
O'o' G'g' Shsh Chch ng'

“Decoder” metodi mavzu yoki biron qoidani raqamlar orqali beriladi. Bunda bolalar harflar bilan raqamlarni aniqlab berilgan so'zlarni topadi. Bu metod bolalardagi topqirlik, chaqqonlik, diqqatni jamlash, tezkorlikni, e'tiborlilikni oshiradi.

“KONVERT” METODI

Konvert metodi bunda konvertga, o'tiladigan mavzudan kerakli joylarlarini yozib, dars boshida bolalarga topshirib, mavzuni tushuntirayotganda aynan o'sha joylarini konvertni olgan o'quvchilardan so'rab boriladi. Bu usulda o'quvchini band qilish, mustaqil ishlash, tinglash, o'qish qo'shimcha bilim berish, faol dars muhitini ya'ni barcha o'quvchilarni darsga jalb qila olish mumkin bo'ladi.

ENERJAYZER 3- BO'G'INLI SO'Z

Bu metodda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Ketma ket har bir guruhdan bir ishtirokchi tashqariga chiqariladi va shu bugun darsda qo'llanilgan 3 bo'g'inli so'zni guhruh ishtirokchilariga taqsimlab beriladi. Tashqarida kutib turgan ishtirokchi kirgan payt bir ovozdan aytadi va tashqaridan kelgan ishtirokchi shu so'zni topishi lozim bo'ladi. Bunda kalit so'zlardan qo'llash samarali bo'ladi. Bu o'quvchida tinglash, diqqatni jalb qilish, topqirlikni oshiradi.

Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida bunday ta'lim metodlarni to'g'ri qo'llash fanni o'rganish muhimligini, ya'ni barcha narsa va buyumlar chizmalar asosida yaratilishi, chizma esa dunyoda yagona barcha tushunadigan til ekanini, chizmani chizish uchun atrofni kuzatib, tahlil qila olishini uqtirishdir.

Bugun har bizning asosiy maqsadimiz o'quvchilarga har bir fanning inson faoliyatidagi o'rni, ahamiyatini yaxshi tushuntira bilishimiz lozimligidir. Darslarni muammoli vaziyatlar va loyiha ishi orqali tashkil etish, amaliyot bilan bog'lash yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2019 yil
2. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. T.T.DPU, 2000 yil
3. Mahmudov M. O'quv materiallarini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat»,2002 yil 3-son
4. "Экономика и социум" №4(95)-2 2022 www.iupr.ru
5. Rakhmanova, D. A. (2024). Primary Concepts of Perspective and Scientific Resources on Teaching it as a Science. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(4), 19-24.
6. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA–(PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT)–XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 208-213.
7. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS – (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) - XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке.
8. Faxriddin o'g'li, F. M., & Muhammad o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KESIMLAR VA ULARNI ORGATISH METODIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 55-63.
9. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58.
10. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155.pages.
11. Fakhriddinov, M. The impact of modern technology on education. Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali, 165-170.
12. Fakhriddinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali, 165-170.
13. Izbasarov, I., & Rahmanova, D. (2023). TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PERSPEKTIVA FANINING O'RNINI. Interpretation and researches, 1(14).
14. Ahrorovna, R. D. Z. (2023). MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM (PBL) DOIRASIDA CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL ETISH VA

Chizmachilik va tasviriy san'at fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va loyiha ishi.

SAMARADORLIGINI OSHIRISH. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 377-379.

15. Сайитова, М. А. (2023). СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ТАРБИЯДАН БОШЛАНАДИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 917-922.